



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(3)

2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 356 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini o'rganishning ahamiyati.....	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati.....	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari.....	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiovva Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinovna</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari.....	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ...	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboyevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari.....	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri.....	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi.....	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarining kasbiy sifatlarini shakllantirish	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech..... 184 Turumbetova Aygul Yusupbaevna	184
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi 189 Ummatkulova Sayyora Shovkatovna	189
	Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish 191 Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov	191
	Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi..... 195 Ermatova Robiya Bekjonali qizi	195
	The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education 199 Ismailova Shaira Ferdausovna	199
	Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners 204 Maqsudova Gulnoz Olimovna	204
	Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms 208 Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi	208
	Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching 212 Sharipova Muhabbat Erkinovna	212
	Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili..... 216 Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich	216
	Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv 222 Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li	222
	O'qituvchilarning qadriyatlarini va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili 227 Yuldashova Dilafuz Shavkatovna	227
	Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida 229 Safarova Madina Azamat qizi	229
	Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности..... 233 Аскарлова Гулрух Оринбасаровна	233
	Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века 239 Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Ғолиб	239
	Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана 242 Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек	242
	Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining asosiy shakllari 245 Abdulkarimov Nurmaxan Amirxanovich	245
	Orol bobo obrazi orqali inson va tabiat birligining talqini 249 Hayotova Diyora Hamid qizi	249
	Yosh taekvondochilarda (10–12 yoshli) kuch, tezkorlik va ephillik sifatlarini takomillashtirish metodikasi .. 254 Iminova Z. B., Nazarova M. A.	254
	Oliy ta'lim muassasasi kafedra mudirlarida liderlik xususiyatini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar 258 Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna	258
	Mediafalsafaning oliy ta'lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari va pedagogik funksiyalari 265 Mirabdullayev Izzatillo Isroiljon o'g'li	265
	Maktabgacha ta'lim tashkiloti kun tartibini to'g'ri tashkil etishda tarbiyachining roli..... 271 Muminova Gulasal Baxodirovna	271
	Soft Skills yondashuvi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish 275 Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi	275
	Tasviriy faoliyat jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirish .. 280 Sadirova Kamola Giyozovna	280



Inklyuziv ta'lim sharoitida maxsus pedagogik metodlar orqali o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash.....	284
<i>Suyunova Kamola Jamshed qizi, Suvonova Kamola Rayimkulovna</i>	
Web-dizayn texnologiyalari asosida bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining raqamli kompetentligini shakllantirish metodikasi	287
<i>Ulmasbek Abdubanapovich Yuldashev, Prof. Dr. Ayhan Istanbulu</i>	
O'smirlar axloqiy rivojlanishining psixologik determinantlari va ularni takomillashtirish mexanizmlari	293
<i>Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li</i>	
Oliy ta'limda o'zbek tili fanini o'qitish: muammo va yechimlar	297
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Folklor motivlarining bolalar xarakteri shakllanishidagi o'rni.....	300
<i>Safarova Nigora Oxunjonovna, Sayfilloyeva Jasmina Jahongirovna</i>	
Kreativ pedagogga qo'yiladigan talablar va uni shakllantirish bosqichlari.....	304
<i>Abdialimova Maxfuza Safarboy qizi</i>	
Biologiya darslarida STEM va biotexnologiya integratsiyasining nazariy poydevori	307
<i>Abdusamatov Abduqodir Norqul o'g'li</i>	
The Effectiveness of Project-Based Learning in Developing 21 st -Century Skills Among EFL Learners	314
<i>Axmatova Munisa Orif qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning o'yin faoliyati asosida ijtimoiylashuvi.....	320
<i>P. M. Pulatova, El'muradova Madina Yangiboy qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini xalq og'zaki ijodi asosidagi didaktik o'yinlar orqali rivojlantirishning lingvopsixologik va tarbiyaviy mexanizmlari.....	326
<i>Muqimova Gullola Qobil qizi, Sultonov Humoyun Ulug'murodovich</i>	
Tillarni o'qitish jarayonini modellashtirishning metodologik asoslari.....	330
<i>Nurkeldi Jarasbayev</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining informatika ta'limidagi o'rni va ahamiyati	334
<i>Abdullayev Abubakir Narzullayevich, Xurozboyeva Sevinch Abror qizi</i>	
Научно-методологические основы организации психопрофилактической и психокоррекционной работы в практической психологии	337
<i>Ядгарова Озода Ибрагимовна</i>	
Raqamli ta'lim muhitida birlamchi manbalar bilan ishlashning sun'iy intellektga asoslangan pedagogik-metodik mexanizmlari	342
<i>Yursinboyev Jaxongir Mexrojiddin o'g'li</i>	
Zamonaviy biologiyada umumiy genetikaning o'rni va istiqbollari	348
<i>Ko'bayev Jurabek Eshmamatovich</i>	
Разработка системы мониторинга информационной безопасности для высших учебных заведений...	352
<i>Хамроев Шохбоз Султонмуродович</i>	



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI KUN TARTIBINI TO'G'RI TASHKIL ETISHDA TARBIYACHINING ROLI

Muminova Gulasal Baxodirovna

Qo'qon davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida (MTT) kun tartibini samarali tashkil etishning pedagogik ahamiyati hamda ushbu jarayonda tarbiyachining kasbiy faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida kun tartibining bolalarning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri o'rganilib, tarbiyachining tashkilotchilik, nazorat va motivatsion funksiyalari yoritilgan. Shuningdek, MTTda sog'lom psixologik muhit yaratish, vaqtni samarali taqsimlash va bolalarning yosh xususiyatlariga mos faoliyatni tashkil etish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, kun tartibi, tarbiyachi, pedagogik jarayon, bolalar rivojlanishi, ta'lim-tarbiya, pedagogik faoliyat.

Abstract: This article analyzes the pedagogical significance of effectively organizing the daily routine in preschool educational institutions and the professional role of the educator in this process. The study examines the impact of daily routines on children's physical, intellectual, and social development while highlighting the organizational, supervisory, and motivational functions of educators. In addition, scientific and methodological recommendations are developed for creating a healthy psychological environment in preschool institutions, effective time management, and organizing activities appropriate to children's age characteristics.

Key words: preschool education, daily routine, educator, pedagogical process, child development, education and upbringing, pedagogical activity.

Аннотация: В данной статье анализируется педагогическое значение эффективной организации режима дня в дошкольной образовательной организации (ДОО), а также профессиональная деятельность воспитателя в данном процессе. В ходе исследования изучено влияние режима дня на физическое, интеллектуальное и социальное развитие детей, раскрыты организационная, контрольная и мотивационная функции воспитателя. Кроме того, разработаны научно-методические рекомендации по созданию благоприятной психологической среды в ДОО, рациональному распределению времени и организации деятельности в соответствии с возрастными особенностями детей.

Ключевые слова: дошкольное образование, режим дня, воспитатель, педагогический процесс, развитие детей, обучение и воспитание, педагогическая деятельность.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimi bolani har tomonlama rivojlantirishning dastlabki va muhim bosqichi hisoblanadi. Ayniqsa, MTTda kun tartibini to'g'ri tashkil etish bolalarning sog'lom o'sishi, psixologik barqarorligi va ta'lim faoliyatiga moslashuvida muhim omil sanaladi. Kun tartibi bolaning ovqatlanish, dam olish, o'yin va ta'lim jarayonlarini muayyan izchillikda tashkil etishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunida maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari sifatida bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantirish, ularga xavfsiz hamda qulay ta'lim muhitini yaratish belgilab qo'yilgan. Shuningdek, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatini kun davomida to'g'ri rejalashtirish, sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish hamda faoliyat turlarining almashinuvini ta'minlash zarurligi ta'kidlangan. Mazkur normativ hujjatlar MTTda kun tartibini pedagogik va gigiyenik talablar asosida tashkil etish muhimligini ko'rsatadi.

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, tartibli tashkil etilgan kun rejimi bolalarda intizom, mustaqillik va mas'uliyat hissini shakllantiradi. Shu bilan birga, kun davomida faoliyatlarning me'yoriy almashinuvi bolaning ortiqcha charchashining oldini oladi. Bu jarayonda tarbiyachining roli alohida ahamiyatga ega bo'lib, u bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtiradi. Shu

sababli MTTda kun tartibini samarali tashkil etishda tarbiyachining o'рни va pedagogik faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kun tartibini to'g'ri tashkil etish masalasi pedagogika va bolalar psixologiyasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev va D.B. Elkoninlarning ilmiy ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida kun tartibi, faoliyat turlarining almashinuvi hamda kattalar tomonidan tashkil etilgan pedagogik muhit muhim omil sifatida e'tirof etilgan. Ularning fikricha, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan faoliyat jarayoni shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim sohasidagi zamonaviy tadqiqotlarda ham kun tartibining bolalar salomatligi, emosional barqarorligi va ijtimoiy moslashuviga ta'siri keng yoritilgan. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan kun davomida o'yin, ta'lim, dam olish va harakatli faoliyatlarning muvozanatli tashkil etilishi bolalarning kognitiv faolligi va mustaqil fikrlashini rivojlantirishi ta'kidlanadi.

O'zbek olimlaridan Sh.A. Do'stmuhammedova, M.X. Rasulova, N.M. Kayumova va boshqa tadqiqotchilar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish hamda sog'lom pedagogik muhit yaratish masalalarini o'rganganlar. Ularning ilmiy ishlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kun tartibiga rioya qilish bolalarda intizom, mustaqillik va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishning muhim sharti sifatida baholanadi.

Shuningdek, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi hamda maktabgacha ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda kun tartibini bolalarning fiziologik ehtiyojlari va yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil etish zarurligi alohida ta'kidlangan. Ushbu hujjatlarda ta'lim, o'yin, ovqatlanish, dam olish va sog'lomlashtirish faoliyatlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda asosan kun tartibining bolalar rivojlanishiga ta'siri yoritilgan. Biroq maktabgacha ta'lim tashkilotida kun tartibini samarali tashkil etishda tarbiyachining tashkilotchilik, boshqaruv va motivatsion faoliyatini kompleks o'rganish masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqotning o'ziga xosligi aynan tarbiyachining kun tartibini to'g'ri tashkil etishdagi roli, uning pedagogik kompetensiyasi hamda bolalar faoliyatini samarali boshqarish imkoniyatlarini ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilishga qaratilganligi bilan izohlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktabgacha ta'lim tashkilotida kun tartibini samarali tashkil etishda tarbiyachining rolini aniqlash va ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilish maqsadida bir qator pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayoni tizimli, izchil va kompleks yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqotning nazariy asosini maktabgacha pedagogika, bolalar psixologiyasi hamda ta'limni tashkil etishga oid ilmiy manbalar tashkil etdi. Jumladan, maktabgacha ta'lim sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, sanitariya-gigiyena talablari hamda ilg'or pedagogik tajribalar tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- 1. Pedagogik kuzatuv metodi** - mazkur metod orqali MTT tarbiyachilarining kun tartibini tashkil etishdagi amaliy faoliyati bevosita kuzatildi. Kuzatuv jarayonida bolalarning ertalabki qabul qilinishi, mashg'ulotlarga tayyorgarligi, ovqatlanish madaniyati, sayr, uyqu va erkin o'yin faoliyatlari monitoring qilindi. Ayniqsa, tarbiyachining bolalar bilan muloqot uslubi, faoliyatni boshqarish darajasi hamda pedagogik nazoratni amalga oshirish shakllariga alohida e'tibor qaratildi.
- 2. Tahlil va taqqoslash metodlari** - turli MTTlarda qo'llanilayotgan kun tartibi namunalarini o'zaro taqqoslash orqali ularning samaradorlik darajasi aniqlandi. Tahlil jarayonida kun tartibining bolalar yoshiga mosligi, faoliyat turlarining davomiyligi, dam olish va ta'lim jarayonlari o'rtasidagi mutanosiblik o'rganildi. Shu bilan birga, tajribali va yosh tarbiyachilar faoliyati qiyosiy jihatdan tahlil qilinib, samarali pedagogik yondashuvlar aniqlab olindi.
- 3. Suhbat va savolnoma metodlari** - tadqiqot davomida MTT tarbiyachilari hamda ota-onalar bilan suhbatlar tashkil etildi. Suhbatlar orqali kun tartibining bolalar rivojlanishiga ta'siri, tarbiyachining pedagogik mahorati va bolalarning faoliyatga munosabati haqida ma'lumotlar olindi. Shuningdek, ayrim tarbiyachilar o'rtasida savolnomalar o'tkazilib, kun tartibini tashkil etishda uchraydigan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari yuzasidan fikrlar o'rganildi.



4. Monitoring va umumlashtirish metodlari - bolalarning kun davomida faollik darajasi, kayfiyati, mashg'ulotlarga qiziqishi va charchash holatlari muntazam monitoring qilindi. Olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, pedagogik jihatdan tahlil etildi. Natijalar asosida kun tartibini samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari hamda tarbiyachining kasbiy kompetensiyasiga qo'yiladigan talablar belgilab olindi.

Tadqiqot davomida quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratildi:

- kun tartibining bolalarning yosh va fiziologik xususiyatlariga mosligi;
- ta'lim, o'yin va dam olish faoliyatlari o'rtasidagi muvozanat;
- tarbiyachining tashkilotchilik va boshqaruv kompetensiyasi;
- bolalarda mustaqillik, intizom va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish;
- sog'lom psixologik-pedagogik muhit yaratish;
- kun tartibida sog'lomlashtirish va harakatli faoliyatlarning o'rni;
- individual yondashuv asosida bolalarning ehtiyojlarini inobatga olish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, MTTda kun tartibini ilmiy-pedagogik talablar asosida tashkil etish bolalarning jismoniy, aqliy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, kun davomida mashg'ulot, o'yin, ovqatlanish, sayr va dam olish jarayonlarining izchil hamda me'yor asosida tashkil etilishi bolalarda barqaror psixologik holatni shakllantirishga xizmat qiladi. Kuzatuv va monitoring natijalariga ko'ra, tartibli tashkil etilgan kun rejimiga ega guruhlarda bolalarning mashg'ulotlarga qiziqishi, faol ishtiroki va intizom darajasi yuqori ekanligi aniqlandi. Kun davomida faoliyatlarning maqsadli almashinib borishi bolalarning ortiqcha charchashini kamaytirib, diqqat va faollikning saqlanishiga yordam berdi. Ayniqsa, aqliy faoliyatdan keyin harakatli o'yinlar yoki erkin faoliyatning tashkil etilishi bolalarning emotsional holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida quyidagi natijalar aniqlandi:

1. Tartibli kun rejimi bolalarda vaqtga rioya qilish ko'nikmasini shakllantirdi. Kuzatuvlar davomida muntazam va izchil tashkil etilgan kun tartibi bolalarda vaqtni his qilish, faoliyatlarga o'z vaqtida tayyorlanish va tartib-intizomga amal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishi aniqlandi.
2. Faoliyatlarning almashib turishi bolalarning charchashini kamaytirdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kun davomida aqliy va jismoniy faoliyatning muvozanatli tashkil qilinishi bolalarning psixofiziologik holatini barqarorlashtiradi. Mashg'ulotlardan keyingi qisqa dam olish daqiqalari, musiqali harakatlar hamda ochiq havodagi sayrlar bolalarning charchashini kamaytirib, keyingi faoliyatga bo'lgan qiziqishni oshirdi.
3. Tarbiyachining pedagogik mahorati bolalar intizomiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tarbiyachining nutq madaniyati, bolalar bilan muloqot uslubi va tashkilotchilik qobiliyati kun tartibining samarali amalga oshirilishida asosiy omillardan biri ekanligi aniqlandi. Xususan, bolalarga muloyim va tushunarli murojaat qiluvchi, faoliyatlarni qiziqarli tashkil etuvchi tarbiyachilar guruhida bolalarning intizomi va mashg'ulotlarga jalb etilish darajasi yuqori bo'ldi. Shuningdek, pedagogning bolalarni rag'batlantirish, maqtov va motivatsion usullardan foydalanishi ijobiy natija berdi.
4. Harakatli o'yinlar va sog'lomlashtirish tadbirlari bolalar salomatligini mustahkamladi. Kun tartibida harakatli o'yinlar, ertalabki badantarbiya va ochiq havodagi sayrlarning muntazam tashkil etilishi bolalarning jismoniy rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Kuzatuvlarda harakatli o'yinlar yetarli darajada tashkil etilgan guruhlarda bolalarning kayfiyati ko'tarinki, faoliyatga qiziqishi esa yuqori bo'lgani aniqlandi.
5. Individual yondashuv bolalarning qiziqishi va faolligini oshirdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bolalarning yosh, temperament va individual xususiyatlarini hisobga olib tashkil etilgan faoliyatlar samaradorligi yuqori bo'ldi. Tarbiyachilar tomonidan ayrim bolalarga qo'shimcha e'tibor qaratilishi, sust qatnashayotgan bolalarni faoliyatga jalb etish usullaridan foydalanilishi ijobiy natija berdi.
6. Moslashuvchan kun tartibi ta'lim samaradorligini oshirdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tajribali tarbiyachilar kun tartibini qat'iy qolip asosida emas, balki bolalarning psixologik holati va ehtiyojlaridan kelib chiqib moslashuvchan tarzda tashkil etadilar. Masalan, bolalarda charchoq yoki diqqatning susayishi kuzatilgan vaziyatlarda faoliyat turini o'zgartirish, qisqa dam olish daqiqalarini tashkil etish yoki harakatli o'yinlardan foydalanish samarali natija berdi.

Bu esa pedagogning kasbiy kompetensiyasi va vaziyatni to'g'ri baholash qobiliyati kun tartibini muvafqiyatli amalga oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari MTTda kun tartibini pedagogik va gigiyenik talablar asosida tashkil etish bolalarning sog'lom rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqladi.

Kun tartibini samarali tashkil etish nafaqat vaqt taqsimoti, balki pedagogik mahorat bilan ham chambarchas bog'liqdir. Tarbiyachi bolalarning fiziologik va psixologik ehtiyojlarini chuqur bilishi zarur.

Tarbiyachi kun davomida bolalar faoliyatini boshqaruvchi, yo'naltiruvchi va motivatsiya beruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ertalabki qabul, mashg'ulotlarga tayyorgarlik, ovqatlanish madaniyati va uyqu jarayonlarini tashkil etishda pedagogning professional yondashuvi muhimdir.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish kun tartibini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Musiqali daqiqalar, relaksatsion mashqlar, didaktik o'yinlar va harakatli faoliyatlarning uyg'un tashkil qilinishi bolalarda ijobiy emotsional muhitni yuzaga keltiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

MTTda kun tartibini to'g'ri tashkil etish bolalarning sog'lom rivojlanishi va sifatli ta'lim-tarbiya olishini ta'minlaydigan muhim pedagogik omildir. Ushbu jarayonda tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi, tashkilotchilik qobiliyati va bolalarga individual yondashuvi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- kun tartibini bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos ravishda tashkil etish;
- faoliyat turlarini muvozanatli rejalashtirish;
- sog'lomlashtiruvchi texnologiyalarni keng qo'llash;
- tarbiyachilarning pedagogik mahoratini muntazam oshirib borish;
- ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Mazkur yondashuvlar MTTda ta'lim-tarbiya sifatini oshirish hamda bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga oid qarorlari to'plami. - Toshkent, 2021.
3. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
4. Xasanboyeva O., Tojimuhamedova L., G'ofurova B. Maktabgacha pedagogika. - Toshkent: O'qituvchi, 2020.
5. Qodirova F.R. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. - Toshkent: Tafakkur, 2019.
6. Usmonova Sh.A. Maktabgacha ta'limda pedagogik texnologiyalar. - Toshkent, 2021.
7. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. - Moskva: Pedagogika, 1991.
8. Zaporjets A.V. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. - Moskva, 1986.
9. Nurmatova D.A. Maktabgacha ta'limda innovatsion yondashuvlar. - Toshkent, 2022.
10. Sodiqova Sh.A. Bolalar psixologiyasi va pedagogikasi. - Toshkent, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.